| <i>Abduraxmanova Mukaddam Mirsalikovna</i>                                                                                                    |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik asoslari .....                                            | 883 |
| <i>Barotova Huriyatxon Uzoq qizi</i>                                                                                                          |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarning konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish modeli .....                | 887 |
| <i>G'ofurova Sh. M.</i>                                                                                                                       |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurati .....                                       | 892 |
| <i>Jovmirzayeva Nargiza Kuvondikovna</i>                                                                                                      |     |
| Talaba sportchilarning mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilish xususiyatlari .....                                                            | 895 |
| <i>Matnazarov Anvar O'ktamovich, Jumonzarov Jaxongir Shixnazar o'g'li</i>                                                                     |     |
| Psixologik konsultatsiyada media ta'sirni inobatga olish zarurati .....                                                                       | 898 |
| <i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>                                                                                                          |     |
| Soft Tissue Control: In the Aesthetic Zone .....                                                                                              | 901 |
| <i>Murodkulov Samandar, Narziev Firdavs, Buzruksoda Javohir</i>                                                                               |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni.....                                                       | 905 |
| <i>N. T. Misirova, Xursanova Mohinur Abdujabbor qizi, Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi</i>                                                   |     |
| Klassik ustoz–shogird an'analari va ularni innovatsion ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirishning pedagogik imkoniyatlari .....               | 910 |
| <i>Raxmanova Nigora Xusanboyevna</i>                                                                                                          |     |
| Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim samaradorligini baholash usullari .....                                                 | 914 |
| <i>Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna</i>                                                                                                   |     |
| Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni tadqiq etishning nazariy-metodologik muammolari.....                              | 918 |
| <i>Shakirova Feruza Baxtiyor qizi</i>                                                                                                         |     |
| Talabalarni pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga mo'ljallangan web platformalarning imkoniyatlari .....                                | 922 |
| <i>Shamsutdinov Fazliddin Axmadovich</i>                                                                                                      |     |
| Talabalarda virtual jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari.....                                         | 926 |
| <i>Sodikova Odinaxon Abdugapporovna</i>                                                                                                       |     |
| Raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modellari ...                               | 930 |
| <i>Suyunova Nargiza Abdurashid qizi</i>                                                                                                       |     |
| G'ovlar orasidagi ritmik masofa tuzilishining sportchilarning musobaqadagi natijalariga ta'sirini tahlil qilish .....                         | 934 |
| <i>Talipov G'ulomojon Adiljanovich</i>                                                                                                        |     |
| Efficacy of a New Ointment for the Treatment and Prevention of Alveolitis.....                                                                | 938 |
| <i>Umarov Maruf, Abdurazzaqov Kamoliddin, Buzruksoda Javohir</i>                                                                              |     |
| Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi .....                | 941 |
| <i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonova Marjona G'ulomovna</i>                                                                            |     |
| Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati .....                                                                     | 945 |
| <i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>                                                                                                      |     |
| 6-7 yoshdagi bolalarni nutq o'stirish mashg'ulotlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish .....                                                    | 949 |
| <i>Xabilova Sitora Tursunmurod qizi, Ziyadullayeva Madina</i>                                                                                 |     |
| Local Anesthesia and Conduction Anesthesia .....                                                                                              | 952 |
| <i>Zulfiya Makhmudovna, Buzruksoda Javohir</i>                                                                                                |     |
| Современное состояние и проблемы подготовки педагогических кадров к инклюзивному образованию .....                                            | 957 |
| <i>Плиева Руслана Владимировна</i>                                                                                                            |     |



|                                                                                                                                 |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati .....                                                       | 962  |
| Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna                                                                                               |      |
| Maktabgacha yoshdagi logopat bolalarning emotsional intellektini shakllantirish usullari.....                                   | 966  |
| Ro'ziqulova Zarina Yusupovna                                                                                                    |      |
| Sahnalashtirish va tasviriy faoliyat integratsiyasi – badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida .....       | 969  |
| Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Usmonaliyeva Yulduz Baxrom qizi                                                                 |      |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o'рни .....                         | 974  |
| Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi                                                                                                   |      |
| Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari.....                | 978  |
| Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Ro'zmetova Yulduz Odilbek qizi                                                                 |      |
| Ta'lim va ishlab chiqarish klasterining nazariy-asosiy jihatlarini .....                                                        | 983  |
| Samadova Mahbuba Nutfullo qizi                                                                                                  |      |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyati jarayonida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish .....  | 987  |
| Kayumova Nargiza Mirziyatovna, Nozimjonova Xojiya Mo'minjon qizi                                                                |      |
| 15-16 yoshli taekvondochilar muvozanat saqlash turg'unligi va harakat aniqligining mashg'ulot jarayonlarida o'sish sur'ati..... | 991  |
| G. X. Ravshanov, A. X. Norov                                                                                                    |      |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suhandonlik to'garagining bolalar nutqi va kommunikativ rivojiga ta'siri..                   | 997  |
| Abduraximova Shahnoza Alikulovna                                                                                                |      |
| Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish .....                               | 1000 |
| Asadova Nozima Abdixalil qizi, O. P. Aslanova                                                                                   |      |
| O'zbekistonda sport sohasini digitalizatsiya qilish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari.....       | 1003 |
| B. Y. Hamrayev                                                                                                                  |      |
| Pedagogik akmeologiya nuqtai nazaridan o'qituvchining prognozlash faoliyati .....                                               | 1008 |
| Bekmuratov Arziwbay Kojamuratovich                                                                                              |      |
| Milliy ta'lim tizimini isloh qilishda timss xalqaro baholash tadqiqotining o'рни.....                                           | 1011 |
| Darvishxo'jayev Abdurashid Abdulxakimovich                                                                                      |      |
| Bo'lajak tarix o'qituvchilarida reflektiv tafakkurni rivojlantirish mazmuni .....                                               | 1015 |
| Dostonbek Bobojonov G'ofurovich                                                                                                 |      |
| Maktabgacha ta'lim jarayonida rag'batlantirish tizimidan foydalanishning didaktik ahamiyati.....                                | 1019 |
| Umarova Mohichehra Ikromjon qizi                                                                                                |      |
| Kichik maktab davrida ma'naviy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari .....                                      | 1023 |
| To'laganova Mohinur Abduhakim qizi                                                                                              |      |
| Bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari.....                           | 1026 |
| Maxmudov Baxodirjon Baxromjon o'g'li                                                                                            |      |
| Integrativ yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida rivojlantirish.....          | 1030 |
| Najmiddinova Gulnoza Odilovna                                                                                                   |      |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik ishlarni tashkil etish mazmuni .....                                                    | 1035 |
| Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayeva                                                                                                |      |
| Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarida ilgari surilgan ta'limiy-axloqiy qarashlar.....                                       | 1038 |
| Raximova Intizor Rustamovna                                                                                                     |      |
| Raqamli resurslar asosida ertak va she'riy matnlar bilan ishlashning innovatsion metodlari .....                                | 1041 |
| Sabirova Gullola G'ayratovna                                                                                                    |      |
| Феномен русскоязычной литературы Узбекистана как пространство культурной памяти и художественного самоопределения.....          | 1045 |
| Чернова Татьяна Алексеевна                                                                                                      |      |

# INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOIY- KOMMUNIKATIVLIKNI BILINGVIZM VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

Najmiddinova Gulnoza Odilovna  
MTTDXQTMOI PhD, dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarida integrativ yondashuv asosida ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani bilingvizm vositasida rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Ilmiy manbalar sharhi orqali mazkur pedagogik muammoning dolzarbligi, nazariy-metodik asoslari hamda zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari bilingval muhitda integrativ yondashuvni qo'llash maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi va kommunikativ rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** integrativ yondashuv, bilingvizm, ijtimoiy-kommunikativ kompetensiya, maktabgacha ta'lim, rivojlanish, ta'lim jarayoni, xalqaro tadqiqotlar, nazariy-metodik asoslar, shakllantirish, zamonaviy pedagogika.

**Abstract:** This article analyzes scientific studies focused on the development of social-communicative competence in preschool children based on an integrative approach through bilingualism. A review of academic sources reveals the relevance of this pedagogical issue, its theoretical and methodological foundations, and its significance in the modern educational process. The findings demonstrate that the application of an integrative approach within a bilingual environment positively influences preschool children's socialization and communicative development.

**Key words:** integrative approach, bilingualism, social-communicative competence, preschool education, development, educational process, international research, theoretical and methodological foundations, formation, modern pedagogy.

**Аннотация:** В данной статье проводится анализ научных исследований, посвящённых развитию социально-коммуникативной компетентности у воспитанников дошкольного образования на основе интегративного подхода с использованием билингвизма. На основе обзора научных источников раскрываются актуальность рассматриваемой педагогической проблемы, её теоретико-методические основы и значение в современном образовательном процессе. Полученные результаты подтверждают, что применение интегративного подхода в билингвальной среде способствует успешной социализации и коммуникативному развитию детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** интегративный подход, билингвизм, социально-коммуникативная компетентность, дошкольное образование, развитие, образовательный процесс, международные исследования, теоретико-методические основы, формирование, современная педагогика.

## KIRISH

Yosh avlodni tarbiyalash jarayoniga yangi pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalarni faol qo'llash, xalqaro miqyosdagi qo'shma dasturlarni ta'lim-tarbiya tizimi bilan integratsiyasini ta'minlash orqali barkamol shaxsni tarbiyalash, ularning uyg'un rivojlanishiga erishish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

"Bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqini amalga oshirishni ta'minlash, bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotini saqlash va mustahkamlash, umumta'lim muassasalarida bolaning jamiyatga moslashishini va ta'lim olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash" maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy maqsadlaridan bo'lib, mazkur natijalarga erishish tarbiyalanuvchilarga ta'lim va tarbiya berish jarayoniga integrativ yondashuvni qo'llashni taqozo etadi.

Integratsiya jarayoni (lotincha integrato – "birlashtirish", "tiklash") – bu tizimning alohida qismlari va elementlarini o'zaro bog'liqlik hamda bir-birini to'ldiruvchi xususiyatlar asosida yagona butunlikka birlashtirish jarayonidir. Ta'lim mazmuniga integrativ yondashuv muammosining turli jihatlarini fiziologiya va psixofiziologiya sohasidagi yirik olimlar, pedagoglar hamda psixologlar tomonidan ilmiy tadqiqotlarda yoritib o'tilgan.



Integratsiya – bu har qanday elementlarni yagona butunlikka birlashtirish hamda mavjud yaxlitlikni tiklash jarayonidir. Demak, integratsiya shunchaki birikish emas, balki o'zaro bog'liqlik va funksional yaxlitlik asosida tizimni rivojlantiruvchi dinamik jarayondir.

Integratsiya tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: "Integratsiya – bu tizimning yaxlit faoliyatini ta'minlovchi, o'zaro bog'liq holda ishlaydigan alohida tabaqalashtirilgan elementlarning o'zaro hamkorlik jarayoni va uning natijasidir". Ya'ni, integratsiya faqat natija emas, balki jarayonning o'zini, ya'ni aloqador qismlarning o'zaro ta'sirini, harakatdagi uyg'unlikni ifodalaydi.

Pedagogik integratsiya – bu ilmiy integratsiyaning bir ko'rinishi bo'lib, u ilmiy integratsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda pedagogik nazariya va amaliyot doirasida amalga oshiriladi.

Integrativ yondashuv pedagoglar tomonidan bolalarning asosiy kompetensiyalarini shakllantirishda qo'llaniladigan metodologik yo'nalish sifatida ta'riflanadi. Mazkur holatda integratsiya o'qituvchi faoliyatini tizimlashtiradi va fanlararo, faoliyatlilaro va madaniyatlilaro birlikni ta'minlaydi.

Shunday qilib, integratsiya tushunchasi yaxlitlik va o'zaro aloqadorlik g'oyalariga tayanadi va tizimni sifat jihatdan yangilash va uning komponentlarini funksional uyg'unlikda rivojlantirishni anglatadi. Pedagogik integratsiya shu ma'noda ta'lim mazmuni, metodlari va vositalarining o'zaro muvofiqligini ta'minlovchi, ta'lim sifatini oshiruvchi hamda shaxs rivojlanishiga yo'naltirilgan zamonaviy konseptual yondashuv sifatida qaraladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimida integratsiya, avvalo, bola shaxsining kognitiv, emotsional, ijtimoiy va jismoniy rivojlanish yo'nalishlarini bir butun holda uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. S.Nurbekovanning fikricha, "integrativ yondashuv maktabgacha ta'limda bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning eng samarali vositasidir, chunki u o'yin, san'at, nutq, musiqiy va kognitiv faoliyatni yagona pedagogik jarayonga birlashtiradi. Shu orqali bola turli faoliyat turlari o'rtasida mantiqiy bog'liqlikni o'rnatib, o'z tajribasini umumlashtirishga o'rganadi".

C.Dong maktabgacha ta'limdagi integratsiyani ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit tizimlilik asosida izohlaydi va pedagogik faoliyat markazida bola shaxsi turishiga e'tibor qaratadi. Ya'ni amalga oshiriladigan o'yin, muloqot, mushohada, tajriba o'tkazish va ijodiy faoliyat turlari o'zaro uzviy bog'lanib, tarbiyalanuvchini faqat ma'lum bir sohada emas, balki butun tafakkurida rivojlanishni ta'minlay olishi nazarda tutiladi.

D.B.Elkonin ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishni o'yin faoliyati bilan chambarchas bog'laydi. Unga ko'ra, "o'yin – bu bolaning ijtimoiy rollarni sinovdan o'tkazadigan maydoni bo'lib, bola o'yin orqali "kattalar dunyosini" modellashtiradi, muloqot, empatiya, o'zini tutish madaniyatini o'rganadi".

T.S.Komarova "integrativ yondashuv orqali ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishni estetik, axloqiy va nutqiy tajribalar bilan bog'lash zarurligini ta'kidlaydi". Bu shuni anglatadiki, maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyatni ko'p tarmoqli – san'at, nutq, o'yin, mehnat faoliyatlari orqali olib borish lozim.

M.A.Pravdov tadqiqotlarida integratsiya bolaning motor va kognitiv faoliyatlarini birlashtirish orqali amalga oshirilishi, bu esa, bolalarda koordinatsiya, idrok, tafakkur va ijodiy harakatni uyg'unlashtirishi ta'kidlanadi.

Yuqorida bayon etilgan tahlillarga tayangan holda aytish mumkinki, integrativ yondashuv bola shaxsini rivojlantirishning psixomotor mexanizmlarini faollashtiradi. Natijada, jismoniy va aqliy faoliyat bir-birini to'ldiruvchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'limda integratsiya ta'lim-tarbiya jarayonining fanlararo, faoliyatlilaro va madaniyatlilaro uyg'unligini ta'minlovchi tizimli metodologik yo'nalish sifatida tarbiyalanuvchi shaxsining tafakkuri, nutqi, muloqot madaniyati, estetik didi va jismoniy salohiyatini kompleks rivojlantirishga imkon beradi.

Yuqoridagi nazariy tahlillarga tayangan holda xulosa qilib aytish mumkinki, ijtimoiy-kommunikativlikni faqat so'z boyligi yoki grammatik to'g'rilik bilan cheklamaslik kerakligini ko'rsatadi. Ya'ni, bolaga "kinga nimani, qachon va qanday aytish kerak"ligini kontekstual o'rgatish lozim. Shuningdek, ijtimoiy-kommunikativlikni rivojlantirishda pedagog-tarbiyachi har bir komponentni alohida-alohida, lekin integrativ uslubda rivojlantirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning "ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalarini batafsil tavsiflab beradi. Mazkur me'yoriy hujjatda:

- 1) jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi,
- 2) ijtimoiy-hissiy rivojlanish,
- 3) nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari,
- 4) bilish jarayonining rivojlanishi hamda
- 5) ijodiy rivojlanish sohalarini bo'yicha me'yoriy holatlar belgilab beriladi.

Har bir rivojlanish sohasi o'z o'rnida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablarni (kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlaridan) qamrab oladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Integrativ yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida rivojlantirish jarayoni tarbiyalanuvchilarning beshta asosiy rivojlanish sohalarini qamrab oluvchi mashg'ulotlar negizida alohida metodik yondashuvni tatbiq etish natijasida amalga oshirilishi lozim degan xulosaga kelindi. Buning uchun, avvalo, tarbiyalanuvchilarda bilingvizm vositasida ijtimoiy-kommunikativlikni rivojlantirishda integrativ yondashuvning imkoniyatlarini aniqlashtirish talab etiladi.

Maktabgacha ta'limning namunaviy o'quv rejasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan mashg'ulotlarning turlari, ularning minimal hajmi hamda yosh bosqichlariga muvofiq taqsimotini belgilab beruvchi me'yoriy-pedagogik hujjat bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos rivojlantiruvchi sharoit yaratish hamda ta'lim dasturlarining mazmunini izchil amalga oshirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'limning namunaviy o'quv rejasiga ko'ra 3 dan 4 yoshgacha, 4 dan 5 yoshgacha, 5 dan 6 yoshgacha bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan quyidagi mashg'ulotlarning o'tkazilishi belgilab berilgan.

Respublikamizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning barcha bosqichlarini ilg'or xorijiy tajribalar va zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish jarayonida tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga doir metodik yondashuvlar davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bunda bilingvizm vositasida bolalarning til kompetensiyasini, muloqot madaniyatini va ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabilar ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu esa, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-kommunikativlikni rivojlantirish jarayonida bilingv ta'lim muhitini yaratish, u orqali til madaniyati, o'z fikrini ifoda etish, boshqalar bilan samarali muloqot o'rnatish va o'zaro hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini ilmiy asosda takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar ham dunyoning ilg'or ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida izchil ravishda olib borilmoqda. Jumladan, Harvard Graduate School of Education (AQSh), University College London – Institute of Education (Buyuk Britaniya), University of Toronto – Ontario Institute for Studies in Education (Kanada), University of Jyväskylä (Finlyandiya), Universität Heidelberg (Germaniya), Université de Genève (Shveytsariya), Seoul National University (Janubiy Koreya) hamda Moskva davlat pedagogika universiteti (Rossiya) kabi nufuzli ta'lim markazlarida bilingv ta'lim, ko'p tillilik, madaniyatlararo muloqot va erta yoshdagi kommunikativ rivojlanish masalalari bo'yicha zamonaviy nazariy-metodik izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, UNESCO va OECD tomonidan olib borilayotgan xalqaro tadqiqotlar (xususan, "Education for Multilingualism and Intercultural Understanding" loyihasi) maktabgacha ta'lim bosqichida ikki tillilik orqali ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning global ahamiyatini ko'rsatmoqda.

Jahon maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy-nazariy va amaliy yutuqlarga erishilgan: bilingv ta'lim muhitini tashkil etish texnologiyalari xalqaro pedagogik hamkorlik mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan (Harvard Graduate School of Education, AQSh); maktabgacha ta'lim tizimida bolalarda ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonlari umumyevropa psixolingvistik ehtiyojlari va faoliyatli yondashuv asosida rivojlantirilgan (University of Jyväskylä, Finlyandiya); bilingvizm sharoitida bola shaxsining ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan translanguaging modeli va madaniyatlararo kommunikatsiya texnologiyalari ishlab chiqilgan (University College London, Buyuk Britaniya); ikki tilli muhitda bolalarning nutqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun integrativ lingvodidaktik modullar yaratilgan (Université de Genève, Shveytsariya); tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda bilingv muhitga mos loyihaviy-konstruktiv metodlar ishlab chiqilgan (Seoul National University, Janubiy Koreya); bolalarda muloqot madaniyati, empatiya va tolerantlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari kognitiv va emosional integratsiya asosida takomillashtirilgan (Miyagi Pedagogical University, Yaponiya); bilingv muhitda ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish jarayonlarini obyektga yo'naltirilgan yondashuvga sinxronlashtirish tamoyillari ishlab chiqilgan (Moskva davlat pedagogika universiteti, Rossiya).

Jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalari, tadqiqot markazlarida hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda bilingvizm vositasida ijtimoiy-kommunikativlikni shakllantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi asosiy yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda: bilingv ta'lim muhitining





sifatini o'lchash va optimallashtirish, bilingv muhit indikatorlarini aniqlash, muhitni boyitish mezonlarini ishlab chiqish, bilingvizm va kognitiv ko'nikmalar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish, bilingval ta'lim va muloqot jarayonida pedagogik aralashuvlar metodikasini takomillashtirish, ijtimoiy hamkorlik, madaniyatlararo muloqot va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, mediamuhit va multimodal vositalar orqali bilingv kommunikatsiya muhitini takomillashtirish.

O'zbekiston milliy ta'lim tizimida ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish shaxsni har tomonlama tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Chunki ta'limning barcha bosqichlarida, xususan, maktabgacha davrdan boshlab bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish ularning keyingi intellektual va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham ta'lim jarayonining uzluksizligi va shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishini maktabgacha ta'lim va tarbiya bosqichida uzluksiz va tizimli ravishda zamonaviy metodik yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirishning zaruriyat ekanligini namoyon etadi.

Shu bilan birga, nazariy va amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishning yetarli darajada shakllanmasligi bugungi kunda keng uchraydigan muammolardan biridir. Mazkur holatning psixologik jihati bolalarning his-tuyg'ularni idrok etish va ularni adekvat shaklda ifodalashdagi qiyinchiliklar, haddan tashqari tortinchoqlik yoki, aksincha, agressiv xatti-harakatlarning namoyon bo'lishida kuzatilsa, pedagogik jihatlari ta'lim dasturlarida bolalarning individual psixologik farqlari yetarli darajada hisobga olinmasligi, tarbiyachilarning zamonaviy kommunikativ metodlardan foydalanishda cheklanganligi, ota-onalar bilan samarali hamkorlikning sustligi bilan izohlanadi. Quyida ushbu xususiyatlar mazmuniga to'xtalib o'tamiz.

Sohaga doir adabiyotlarda nutqiy kamchiliklar sifatida bolalar orasida tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish, so'z boyligining cheklanganligi, grammatik tuzulishlarni noto'g'ri tuzish, yoki muloqotga kirishishdagi tortinchoqlikka e'tibor qaratiladi.

Maktabgacha ta'lim davrida bola shaxsining ijtimoiy va kommunikativ shakllanishi bir qator individual va tashqi omillarga bevosita bog'liqdir. Jumladan, bolaning o'z fikrini erkin ifodalay olmasligi, nutqiy rivojlanishdagi qiyinchiliklar, agressiv xulqiy reaksiyalari hamda haddan tashqari passivlik ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishni sezilarli darajada qiyinlashtiradi.

Nutqiy rivojlanishdagi nuqsonlar bola ijtimoiy faoliyatining markaziy omillaridan biri bo'lib, nutqiy imkoniyatlari cheklangan tarbiyalanuvchilar tengdoshlari bilan muloqotda ko'proq qiyinchiliklarga duch kelishlariga sabab bo'ladi. Ya'ni, ularda suhbatni boshlashda tortinchoqlikning kuzatilishi, qisqa javoblar bilan cheklanishi yoki butunlay sukut saqlash holatlari aniqlangan. Shu bois bunday bolalar ko'pincha passiv ijtimoiy rolga tushib qolishi bilab xususiyatlanadi.

Shuningdek, agressiv xatti-harakatlarning nutqiy va ijtimoiy cheklovlar bilan bog'liqligi haqidagi ehtimol ham mavjud. K.A.Dodgening tadqiqotlarida ijtimoiy axborotni qayta ishlashga doir ifodalangan modelda bolaning muloqot jarayonida signallarni noto'g'ri talqin qilishi, ayniqsa til imkoniyatlari past bo'lganda, agressiv munosabatlarni kuchaytirishi ta'kidlanadi.

Passiv xulq ham ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishni sekinlashtiruvchi muhim omillardan biri bo'lib, bunday bolalar ko'pincha suhbatni boshlashdan bosh tortadi, qisqa va sodda javoblar bilan chegaralanadi yoki og'zaki bo'lmagan vositalar orqali muloqot qiladi. Natijada ular ijtimoiy tajribani boyitish imkoniyatidan mahrum bo'lادilar.

Ushbu tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkin: nutqiy rivojlanishdagi qiyinchiliklar, agressivlik, passivlik va emotsional ifodaning yetarli emasligi maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish jarayonini sezilarli darajada sekinlashtiradi.

Bolalarning aqliy rivojlanishi, idrok (persepsiya), fikrlash qobiliyatlari, emotsiya va hissiyotlar bilan ishlash kabi psixologik faktorlar nutq rivojlanishiga salbiy yoki ijobiy ta'sir qilishi mumkin.

Bundan tashqari, emotsional omillar bola nutqiy faolligini belgilab berishda alohida o'ringa ega. J.Brunerning izlanishlarida emotsional qo'llab-quvvatlashga ega bo'lgan bolalar muloqot jarayonida nisbatan faol bo'lishi, bu esa, ularda ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni tezroq rivojlantirishiga sabab bo'lishi dalillanadi. Aksincha, tarbiyalanuvchi shaxsidagi xavotir, qo'rquv yoki agressivlik bolaning o'z fikrini erkin ifoda qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

Shunday qilib, nutq rivojlanishi birgina biologik jarayon emas, balki murakkab psixologik omillar majmuasiga asoslangan jarayon hamdir. Aqliy, perseptiv, tafakkuriy va emotsional jarayonlarning uyg'unligi bola nutqining samarali shakllanishini ta'minlaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy-kommunikativlikni rivojlantirishda mazkur omillarni kompleks hisobga olishni zarur deb hisoblaymiz.

Shuningdek, sohada doir adabiyotlarda bolada idrok xususiyatlarining rivojlanganligi ham nutqiy birliklarni egallashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Xususan, J.Piajening ta'kidlashicha, bolada atrof-muhitni sezish va idrok etish darajasi qanchalik yuksak bo'lsa, u nutqiy tizimni shunchalik samarali o'zlashtiradi. Aksincha, perseptiv rivojlanishdagi sustlik fonetik va semantik darajadagi qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.



Demak, bolalarda nutqning shakllanishi ko'p qirrali psixologik jarayon bo'lib, uning poydevorini aqliy rivojlanish, idrok (persepsiya), tafakkur jarayonlari, emotsional holat va hissiyotlarni boshqarish tashkil etadi. Ushbu omillar bolaning tilni o'zlashtirish tezligi, nutqiy birliklardan foydalanish darajasi hamda muloqot jarayonidagi samara-dorligini belgilab beradi. Shunday qilib, nutq rivojlanishi birgina biologik jarayon emas, balki murakkab psixo-logik omillar majmuasiga asoslangan jarayon hamdir. Aqliy, perseptiv, tafakkuriy va emotsional jarayonlarning uyg'unligi bola nutqining samarali shakllanishini ta'minlaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy-kommunikativlikni rivojlantirishda mazkur omillarni kompleks hisobga olishni zarur deb hisoblaymiz.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ota-ona va pedagog hamkorligi yetarli bo'lmaganda shunday holatlar ham borki, tarbiyalanuvchilarda ijti-moiy-kommunikativ ko'nikmalarni tarkib topishiga salbiy ta'sir etadi. Maktabgacha yosh davri shaxsning ijti-moiylashuvi va kommunikativ kompetensiyalarining shakllanishida asosiy poydevor davr hisoblanadi. Ushbu jarayonda bola hayotidagi eng yaqin ijtimoiy muhit – oila va ta'lim muassasasining o'zaro hamkorligi muhim o'rin tutadi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar ko'rsatadiki, agar ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik yetarli darajada bo'lmasa, bolaning ijtimoiy-emosional rivojlanishida, xususan, ijtimoiy-kommunikativlik sifatla-rini shakllantirishda turli qiyinchiliklar yuzaga keladi:

*Birinchidan*, nutqiy rivojlanishdagi sustlik ota-onaning bolaga yetarlicha muloqot va emotsional qo'llab-quvvatlash ko'rsatmasligining natijasi hisoblanadi. Mazkur holat U. Bronfenbrennning ekologik tizimlar nazari-yasida "bolaning taraqqiyoti unga yaqin bo'lgan mikromuhitdagi subyektlarning (ota-ona, pedagog) o'zaro ta'si-riga bevosita bog'liqdir" degan qarashiga asoslanadi. Ya'ni, bola shaxsining rivojlanishi oila a'zolari va peda-goglarning o'zaro ta'siriga bevosita bog'liq bo'lib, ularning hamkorligi bolaning ijtimoiy-kommunikativ, nutqiy va emotsional rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qiladi. Aksincha, hamkorlikning sustligi yoki "uzilishi" bola shaxsida maktabgacha ta'lim tashkiloti muhitiga moslashuv bilan bog'liq qiyinchiliklar, kommunikativ sustlik va emotsional beqarorlikni yuzaga keltirishi mumkin.

*Ikkinchidan*, agar pedagog va ota-onalar bola uchun yagona tarbiyaviy yo'nalishni shakllantirmasa, bola turli vaziyatlarda qarama-qarshi xatti-harakat namunalari bilan to'qnashadi. Bu holat bolaning emotsional beqa-rorligi va ijtimoiy rollarni egallashda chalkashliklarga sabab bo'lishi mumkin.

*Uchinchidan*, ota-ona va pedagogning hamkorligi yetarli bo'lmagan sharoitda bolada o'z emotsiyalarini boshqarish, agressiyasini nazorat qilishda qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Yetarli darajada emotsional rivojla-nishga ega bo'lmagan bolalarda esa kommunikativ kompetensiyalarning sust shakllanishini anglashiladi.

*To'rtinchidan*, ijtimoiy kompetensiyalarning shakllanmasligi bolaning guruhviy faoliyatda passiv bo'lishi, muloqotdan chetlanishi, hamkorlikka kirisha olmasligi kabi oqibatlariga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa maktab-gacha ta'lim tarbiyalanuvchilarida nafaqat kommunikativ, balki kognitiv rivojlanishga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi nazariyasi shuni ko'rsatadiki, bola rivojida kattalar va teng-doshlar bilan hamkorlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, ota-ona va pedagog o'rtasida uzviy hamkorlikning yetishmasligi bolaning shaxsiy va ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishida ko'plab cheklanishlarni yuzaga keltiradi. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalarni pedagogik jarayonga faol jalb etish, o'zaro muloqotni tizimli tashkil etish va tarbi-yaviy maqsadlarda yagona yondashuvni shakllantirish muhim ilmiy-nazariy va amaliy vazifa sifatida qaraladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 24 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsep-siyasi. – Toshkent, 2019. – 36 b.
3. Najmiddinova G. O. Issues of the development of connected speech in children 5-7 years old with a differentiated approach to learning.
4. Najmiddinova G.O. 5-6 yoshli bolalar bog'lanishli nutqini rivojlantirish//Методик қўлланма. Nizomiy nomli toshkent davlat pedagogika universiteti O'quv-uslubiy kengashining 6–sonli yig'ilishi // 28. 02.24
5. Najmiddinova G.O. Педагогика раннего и дошкольного возраста.//Учебное пособие. Гувохнома № 2025 – 167 U – 589.
6. Najmiddinova G.O. Педагогика дошкольного образования и воспитания// Учебник 2024. 8 июль. Гувохнома № 254 –U-388

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №2(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.